
KONSTITUTSIYAVIY QONUN BO'YICHA OCHIQ MULOQOTLAR BO'LIB O'TMOQDA



Mamlakatimizda 25 iyundan boshlab 5 iyul kuniga qadar "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining umumxalq muhokamasiga start berildi.

Shu munosabat bilan Qo'shtepa tumanida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod Raximovning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasini umumxalq muhokamasiga qo'yish bo'yicha Qo'shtepa tumanida tadbirlar o'tkazishi rejalashtirilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod Raximov ishtirokidagi navbatdagi ochiq muloqot Yangi do'kon mahallasida o'tkazildi. Unda mahalla faollari hamda Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi deputati Soyibjon Tursunovlar ishtirok etishdi.

Tadbir davomida birinchi o'qishda qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun loyihasi haqida atroflicha ma'lumot berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-06-28 06:40:33